

## INGLIZ TILINI O'RGATISHDA VIZUAL METODLAR

**Муртазаева Меҳрибон Улуғбек қизи**

Тошкент вилояти Янгийўл шаҳар “Bolajon-polvonjon” МЧЖ хусусий  
мактабининг инглиз тили ўқитувчиси  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19762285>

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatishda vizual metodlarning samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda A. Paivoning ikki kanalli kodlash nazariyasi, R. Mayerning multimediali o'rganish konsepsiyasi, D. Buzonning aqliy xaritalar metodi hamda L. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g'oyasiga asoslangan holda flashcards, mind maps, video darslar va infografika kabi vizual vositalarning til o'rganishdagi o'rni ko'rsatiladi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, vizual metodlar o'quvchilarda lug'at boyligini egallash, grammatik qoidalarni o'zlashtirish va talaffuzni takomillashtirish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** vizual metodlar, ingliz tili o'qitish, ikki kanalli kodlash, aqliy xaritalar, multimediali o'rganish, flashcards, infografika.

**Abstract**

This article examines the effectiveness of visual methods in teaching English from a scientific and theoretical perspective. Drawing on Paivio's Dual Coding Theory, Mayer's Multimedia Learning framework, Buzan's Mind Mapping technique, and Vygotsky's Zone of Proximal Development, the role of flashcards, mind maps, video lessons, and infographics in language acquisition is explored. The findings confirm that visual methods significantly accelerate vocabulary acquisition, grammatical competence, and pronunciation improvement among learners.

**Keywords:** visual methods, English language teaching, dual coding theory, mind maps, multimedia learning, flashcards, infographics.

Ingliz tili bugungi globallashtirilgan dunyoda muhim muloqot vositalaridan biri hisoblanadi. Uni samarali o'rgatish va o'rganish uchun zamonaviy, interaktiv metodlardan foydalanish davr talabi bo'lib bormoqda. Shunday metodlardan biri vizual metodlar bo'lib, bu uslub orqali o'quvchilarda eslab qolish qobiliyati kuchayadi va til o'rganishga bo'lgan qiziqish ortadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, an'anaviy til o'rgatish usullari ko'pincha o'quvchilarning turli idrok etish uslublarini hisobga olmaydi. Vizual metodlar esa og'zaki va tasviriy ma'lumotlarni birgalikda taqdim etish orqali o'rganish samaradorligini oshiradi (Paivio, 1986; Mayer, 2001). Ushbu tadqiqot

ingliz tilini o'rgatishda vizual metodlarning ilmiy asoslarini tahlil qilish, ularning turlari va amaliy qo'llanilishini ko'rsatish maqsadida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, mavjud xorijiy va mahalliy adabiyotlar asosida vizual metodlarning zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan bog'liqligi tizimli tahlil qilinib, ularning o'zbekistonlik o'quvchilar uchun amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

### **Adabiyotlar tahlili (literature review)**

Vizual metodlarning nazariy asosi bir qancha yirik pedagogik va psixologik tadqiqotlarga tayanadi. Allan Paivio (1986) tomonidan ilgari surilgan ikki kanalli kodlash nazariyasiga (Dual Coding Theory) ko'ra, inson miyasi vizual (ko'rish) va verbal (so'z) ma'lumotlarni alohida kanallar orqali qabul qiladi; ular birgalikda ishlatilganda eslab qolish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bu nazariya vizual metodlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi eng muhim konsepsiyalardan biri hisoblanadi.

Richard Mayer (2001) o'zining "Multimedia Learning" asarida multimodal (audio + video) o'rganishning samarali ekanligini isbotlaydi va bu yondashuv, ayniqsa, ikkinchi til o'rganishda yuqori natijalar berishini ko'rsatadi. Jeremy Harmer (2007) "The Practice of English Language Teaching" nomli asarida kartochkalar va rasmlar orqali so'z o'rgatishning o'quvchilarda motivatsiyani oshirishi hamda vizual eslab qolishni kuchaytirishini ta'kidlaydi.

Tony Buzan tomonidan ishlab chiqilgan "Aqliy xaritalar" (Mind Mapping) metodi o'quvchilarga murakkab axborotni soddalashtirib, tizimli tarzda eslab qolishga yordam beradi. Lev Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi (Zone of Proximal Development) nazariyasiga ko'ra esa, o'qituvchi o'quvchiga mos yordam vositalarini taqdim etganda o'rganish samarasi maksimal bo'ladi; vizual materiallar ana shu yordam vositasi sifatida xizmat qiladi (Vygotsky, 1978).

Shunday qilib, yuqoridagi nazariyalar vizual metodlarning faqat didaktik usul emas, balki ilmiy jihatdan asoslangan pedagogik yondashuv ekanligini tasdiqlaydi.

### **Metodologiya (materials and methods)**

Tadqiqotda tahliliy-tavsifiy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar (Paivio, 1986; Mayer, 2001; Harmer, 2007; Vygotsky, 1978) hamda zamonaviy ELT (English Language Teaching) nashrlari keng ko'lamda o'rganildi. Vizual metodlarning asosiy turlari: flashcards, mind maps, video darslar va infografika nazariy asoslar va amaliy tatbiq nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Har bir metodning afzalliklari va o'quvchi qabul qilishiga ta'siri mavjud nazariy modellar doirasida ko'rib chiqildi. Tadqiqot sifat tahlili asosida olib borildi va mavjud empirik ishlar natijalari umumlashtirilib, sintez qilindi.

### **Natijalar va muhokama (results and discussion)**

#### **Vizual metodlarning asosiy turlari**

##### **1. Flashcards (Kartochkalar)**

So'zlar va ularning rasmlari bilan ishlash orqali o'quvchilar yangi lug'atlarni tez o'zlashtiradi. Yangi mavzu so'zlarini suratlar ko'rsatish yoki doskaga o'quvchilar bilan birga chizish orqali o'sha mavzuni tezroq o'rganib olishlariga yordam beradi. Harmer (2007) ta'kidlaganidek, kartochkalar va rasmlar orqali so'z o'rgatish o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi va vizual eslab qolishni kuchaytiradi.

##### **2. Mind Maps (Aqliy xaritalar)**

So'zlar va ularning o'zaro bog'liqligi aqliy xaritalar orqali ko'rsatiladi. Bu metod grammatikani o'rganishda va o'rgatishda juda foydalidir. Buzon ta'kidlaganidek, ushbu usul o'quvchilarga murakkab axborotni soddalashtirib, tizimli tarzda eslab qolishga imkon beradi va mavzular orasidagi semantik aloqalarni yaqqol ko'rsatadi.

##### **3. Video darslar va animatsiyalar**

Harakatli tasvir va audio birgalikda ishlatilganda talaffuz va kontekstual tushunish yaxshilanadi. Mayer (2001) o'z tadqiqotlarida multimodal (audio + video) o'rganishning samarali ekanligini isbotlab, bu yondashuvning ikkinchi til o'rganishda ayniqsa yuqori natija berganligini ko'rsatadi.

##### **4. Infografika va diagrammalar**

Murakkab grammatik yoki leksik ma'lumotlarni oddiy grafik ko'rinishida yetkazish orqali o'quvchilarning anglash darajasi oshadi va esda qolish osonlashadi. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga ko'ra, vizual materiallar o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan maqsadli yordami sifatida xizmat qiladi.

#### **Vizual metodlarning asosiy afzalliklari**

Birinchi, vizual metodlar o'rganuvchilarning eslab qolish darajasini oshiradi. Paivio (1986) va Mayer (2001) tasviriy va og'zaki axborot birga ishlatilganda, u uzoq muddatli xotirada yaxshi saqlanishini ilmiy jihatdan isbotlagan.

Ikkinchi, vizual metodlar bilan ishlaydigan o'qituvchilar sinfxonada ijodga boy, qiziqarli muhit yaratadilar. Har bir o'quvchining darsda faol

qatnashishi ta'minlanadi. Harmer (2007) qiziqarli, interaktiv vositalar o'quvchilarni darsga faol jalb qilishini qayd etgan.

Uchinchidan, vizual metodlar shaxsiylashtirilgan o'rganish imkoniyatini beradi, ya'ni har bir o'quvchi o'ziga mos o'rganish uslubini tanlashiga yordam beradi. Har bir o'quvchi individual yondashib, o'zining idrok etish tarziga ko'ra material o'zlashtiradi bu Vygotsky tomonidan qo'llab-quvvatlangan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdir.

### **Xulosa (conclusion)**

Ingliz tilini o'rgatishda vizual metodlardan foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, bu usul til o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Allan Paivio, Richard Mayer, Jeremy Harmer, Tony Buzan va Lev Vygotsky kabi olimlarning tadqiqotlari ushbu metodlarning amaliyotda yuqori natija berishini ko'rsatadi.

O'qituvchilar va o'quvchilar vizual metodlardan to'g'ri foydalansa, til o'rgatish va o'rganish jarayoni yanada tezroq, tushunarliroq va qiziqarliroq kechadi. Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: o'quv dasturlariga vizual materiallarni tizimli ravishda kiritish; o'qituvchilarni vizual pedagogika asoslari bo'yicha muntazam malaka oshirishlarini ta'minlash; flashcards va mind maps kabi vositalardan ham sinfda, ham mustaqil ta'limda keng foydalanish.

Keyingi tadqiqotlarda vizual metodlarning amaliy samaradorligini o'lchash maqsadida eksperimental tekshiruvlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Buzan, T. (2006). The Ultimate Book of Mind Maps. Thorsons.
2. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching (4th ed.). Pearson Longman.
3. Mayer, R. E. (2001). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
4. Paivio, A. (1986). Mental Representations: A Dual Coding Approach. Oxford University Press.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.